


FARG'ONA VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

* tezkor ma'lumot

(2020-yil yanvar)

2020-yil yanvar oyi yakuniga ko'ra, viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 92,9 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan 86,6 % ni tashkil qildi. Shu jumladan, eksport hajmi 34,4 mln. AQSh dollarga (14,3 % ga o'sdi) va import hajmi 58,5 mln. AQSh dollariga (-24,3 % kamaydi) yetdi. Tashqi savdo saldosи -24,1 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

*Farg'ona viloyati tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSh dollari)




So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rmini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xomashyo eksportidan, qo'shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo'naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.


2019-2020-yillarda tovar va xizmatlarning eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi

(mln. AQSh dollarari)

2019-yil yanvar



2020-yil yanvar



2020-yil yanvar oyida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi ham 2019-yilning yanvar oyining mos davriga nisbatan deyarli o'zgarishsiz qolmoqda.

Viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar

(mln. AQSh dollarari)


Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, %da
Xitoy	25,5	7,3	18,2	27,5
Qozog'iston	18,6	3,7	14,9	20,1
Rossiya	17,1	6,5	10,5	18,4
Turkiya	8,8	4,4	4,4	9,5
Qirg'iziston	6,5	3,4	3,1	6,7
Koreya Respublikasi	3,9	1,6	2,3	4,2
Misr	1,5	1,5	-	1,5
Polsha	1,4	1,4	0,03	1,5
Tojikiston	1,3	0,5	0,8	1,3

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2020-yil yanvar oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 48,1 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 80,4 % ni tashkil etdi. Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2020-yilning yanvar oyida o'tgan yil shu davriga nisbatan 6,6 % pasaygan bo'lsa, viloyatning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi esa 51,9 ga yetdi.

EKSPORT.

2020-yil yanvar oyida eksport hajmi 34,4 mln. AQSh dollarga (2019-yilning shu davriga nisbatan 14,3 % ga o'sdi) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 98,4 % ulushga ega, bular asosan oziq-ovqat mahsulotlari (23,6 %), energiya manbaalari va neft mahsulotlari (2,3 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (0,9 %), qora va rangli metallar (0,1 %), mashina va uskynalar (0,3 %), shuningdek xizmatlar eksporti (1,6 %) va boshqalar (71,2 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (mln.AQSh dollar)




Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	2019-yilga nisbatan, % da	umumiy hajimga nisbatan, % da	mln. AQSh doll.	2019-yilga nisbatan, % da	umumiy hajimga nisbatan, % da	mln. AQSh doll.	2019-yilga nisbatan, % da	umumiy hajimga nisbatan, % da
Eksport	34,4	114,3	100	15,0	145,6	100	19,4	98,5	100
Oziq-ovqat mahsulotlari	8,1	126,6	23,6	7,3	243,8	49,1	0,8	22,7	4,0
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	0,3	168,6	0,9	0,3	168,6	2,0	0,0	0,0	0,0
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	0,8	79,9	2,3	0,4	61,8	2,4	0,4	105,8	2,2
Qora va rangli metallar	0,0	0,0	0,1	0,0	0,0	0,0	0,03	0,0	0,2
Mashina va asbob -uskunalar	0,1	203,2	0,3	0,1	338,4	0,7	0,0	0,0	0,0
Xizmatlar	0,6	82,6	1,6	0,5	87,0	3,3	0,1	60,0	0,3
Boshqalar	24,5	112,5	71,2	6,4	106,5	42,5	18,1	114,8	93,2

Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari

(2019-yilga nisbatan, % da)




Shuningdek, tovar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2020-yilning yanvar oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan 14,3 % ga o'sdi.


Xizmatlar eksporti hajmi 0,6 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 1,6 % tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan (0,1 mln. AQSh dollar kamaygan) - 17,4 % pasayganligi kuzatildi.

Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, sog'liqni saqlash bo'yicha xizmatlar hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.

2019-2020-yil yanvar oyida tovarlar va xizmatlar eksporti (mln. AQSh dollari)



Viloyat eksportida asosiy yirik hamkor davlatlarning ulushi (yanvar)



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Qirg'iziston, Qozog'iston va Xitoy Xalq Respublikasi xissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 61,1 % ini tashkil qiladi. Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Farg'ona viloyatining asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, % da		O'rni	
	2019-yil.	2020-yil.	2019-yil.	2020-yil.	2019- yil.	2020-yil.
Xitoy	9,4	7,3	31,3	21,4	1	1
Rossiya	6,2	6,5	20,5	19,0	2	2
Qirg'iziston	1,3	3,4	4,9	10,0	6	3
Turkiya	4,3	4,4	14,3	12,7	4	4
Qozog'iston	1,1	3,7	3,6	10,7	7	5
Koreya Respublikasi	0,4	1,6	1,2	4,7	11	6
Polsha	1,6	1,4	5,2	4,0	5	7
Misr	0,4	1,5	1,4	4,3	12	8
Afg`oniston	0,04	1,0	0,2	2,9	14	9
Ukraina	0,6	0,6	2,1	1,7	10	10
Marokko	0,06	0,6	0,2	1,7	16	11
Tojikiston	0,8	0,5	2,6	1,3	9	12
Bangladesh	1,9	0,2	6,6	0,7	3	13
Belorus	0,2	0,2	0,6	0,4	13	16
Belgiya	0,0	0,2	0,0	0,5	15	15
Vietnam	0,9	0,1	3,2	0,4	8	14

Farg'ona viloyatining ayrim davlatlar bilan eksport tarkibi (yanvar oyida)

(mln. AQSh doll.)

	Rossiya Federatsiyasi		Qirg'iziston Respublikasi	
	2019-yil.	2020-yil.	2019-yil.	2020-yil.
Jami eksport	6,2	6,5	1,5	3,4
Oziq-ovqat mahsulotlari	0,4	1,1	1,2	2,7
Kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan buyumlar	0,02	0,0	1,1	0,2
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,3	0,0	0,08	0,2
Qora va rangli metallar	0,0	0,0	0,0	0,0
Mashina va uskunalar	0,02	0,1	0,009	0,0
Xizmatlar	0,5	0,5	0,01	0,02
Boshqalar	4,9	4,8	0,03	0,4

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2020-yilning yanvar oyida jami 13,5 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 7,4 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati 2,5 marta o'sdi). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2020-yilning yanvar oyida 8,5 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 2,7 mln. AQSh dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,8 ming tonnaga ko'p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 2,7 ming tonna meva va rezavorlar 2,7 mln. AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 ming tonnaga ko'pdir.

Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi



Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2020 yilning yanvar oyida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 7,4 mln. AQSh dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,5 martaga ko'paydi).


Viloyatimizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi

Davlat nomi	2019-yil yanvar			2020-yil yanvar		
	Ming. tonna	Ming. AQSh dollar	Ulushi, % da	Ming. tonna	Ming. AQSh dollar	Ulushi, % da
Qozog'iston	3,2	0,8	27,6	7,1	3,4	45,9
Rossiya Federatsiyasi	0,4	0,3	10,3	1,8	1,1	14,9
Qirg'iziston	1,6	1,1	37,9	4,3	2,6	35,1
Tojikiston	0,1	0,1	3,4	0,01	0,004	0,1
Ukraina	1,8	0,4	13,8	0,1	0,09	1,2
Xitoy XR	0,02	0,02	0,7	0,02	0,02	0,3

IMPORT

Joriy yilning yanvar oyida import hajmi 58,5 mln. AQSh dollariga (-24,3 % kamaydi) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (29,5 %), energiya manbalari va neft maxsulotlari (22,3%), oziq-ovqat mahsulotlari (14,5%), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (9,4 %), qora va rangli metall (7,2 %), import xizmati (0,3 %) hamda boshqalar (16,8 %) hisobiga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi tarkibi (mln.AQSh dollarari)




Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	2019-yilga nisbatan, % da	umumiy hajimga nisbatan, % da	mln. AQSh doll.	2019-yilga nisbatan, % da	umumiy hajimga nisbatan, % da	mln. AQSh doll.	2019-yilga nisbatan, % da	umumiy hajimga nisbatan, % da
Import	58,5	75,7	100	25,9	65,6	100	29,0	90,2	100
Oziq-ovqat mahsulotlari	8,5	53,8	14,5	7,0	47,3	23,5	1,5	154,1	5,2
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	5,5	60,1	9,4	1,2	43,7	4,2	4,3	67,9	14,8
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	13,0	79,2	22,3	13,0	79,0	43,7	0,04	149,4	0,2
Qora va rangli metallar	4,2	145,7	7,2	3,1	217,9	11,5	1,1	60,7	2,8
Mashina va asbob-uskunalar	17,3	82,4	29,5	0,5	51,4	1,4	16,8	83,6	58,5
Xizmatlar	0,2	108,1	0,3	0,0	0,0	0,0	0,2	108,1	0,7
Boshqalar	9,8	82,9	16,8	4,7	52,9	15,7	5,1	171,7	17,8

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar oyi davomida eng past o'sish sur'atlari kuzatilgan.

Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi (2019-yilga nisbatan, % da)



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2020-yilning yanvar oyida import qilingan tovar va xizmatlar 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan -24,3 % ga kamaygan.

Farg'ona viloyatiga asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi


Davlat nomi	Mln. AQSh dollari.		Ulushi, % da		O'rni	
	2019-yil.	2020-yil.	2019-yil.	2020-yil.	2019-yil.	2020-yil.
Xitoy	15,1	18,2	19,5	31,1	2	1
Qozog'iston	23,3	14,9	30,2	25,5	1	2
Rossiya	17,0	10,5	22,0	18,0	3	3
Turkiya	1,8	4,5	2,3	7,6	7	4
Qirg'iziston	1,1	3,0	1,5	5,2	8	5

Koreya	2,3	2,3	3,0	3,9	6	6
Tojikiston	1,3	0,8	1,7	1,4	10	7
Ekvador	0,04	0,6	0,1	1,0	12	8
Gonkong	0,04	0,5	0,1	1,0	13	9
Germaniya	3,3	0,3	4,3	0,5	4	10
Eron	0,3	0,3	0,4	0,5	11	11
Latviya	2,6	0,2	3,3	0,4	5	12
Belorus	0,4	0,1	0,5	0,3	9	13

Xizmatlar importi tarkibi, (%)


Xizmatlar importi hajmi 0,2 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 0,3 % ini tashkil etadi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, moliya, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo'ldi.

2019-2020-yillarda tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi (mln. AQSh dollari)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2020-yilning yanvar oyi davri mobaynida viloyatga import qilinayotgan tovar va xizmatlar o'tgan 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan 18,7 mln. AQSh dollarga kam import qilindi va 58,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

**Viloyat importida asosiy
hamkor davlatlarning tovar va xizmatlar hajmi
2020-yil yanvar
(mln. AQSh dollar))**



2020-yilning yanvar oyida viloyatimizga 37 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi hajmi amalga oshirilgan. Shulardan 9 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Germaniya, Gonkong, Korea Respublikasi va Tojikiston Respublikasi, hamkor davlatlaridan jami import hajmi 57,8 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 98,8 % ni tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:73-249-87-18**